

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalariga hujjat topshirgan magistratura mutaxassisliklarida tahsil olayotgan talabgorlarning natijalarini baholash mezonlari

| T/r | Ko‘rsatkichlar | Qo‘yiladigan ball | Izoh |
|------------|---|--------------------------|--|
| 1. | Ilmiy tadqiqot ishlari (ilmiy maqola, tezis va b.) | 40 ballgacha | Talabgor tomonidan mustaqil tanlangan asosiy 4 ta ilmiy-tadqiqot ishi inobatga olinadi va har biri 10 ballgacha baholanadi |
| | Qolgan ilmiy-tadqiqot ishlari | 10 ballgacha | Asosiy tanlangan 4 ta ilmiy-tadqiqot ishidan boshqa barcha ishlari inobatga olinadi va jami 10 ballgacha baholanadi |
| 2. | Erishgan yutuqlari (Davlat mukofoti, xalqaro va respublika fan olimpiadasi hamda ko‘rik tanlovlar g‘olibligi, patent, ixtirolar va b.) | 20 ballgacha | Talabgorning tahsil olayotgan mutaxassisligiga mosligiga ustuvorlik beriladi |
| 3. | Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan O‘zbekiston tarixi, axborot texnologiyalari, xorijiy tillar bo‘yicha o‘tkaziladigan test sinovlari natijalari | 30 ballgacha | To‘plash mumkin bo‘lgan eng yuqori ballga proporsional ravishda hisoblanadi |

Izoh.

1. Quyidagilarga:

ilmiy ishlar, yutuqlar, natijalarning aynan talabaning muayyan ta’lim bosqichi davrida erishilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlarining izchilligiga, yakka mualliflikda hamda nufuzli nashrlarda chop etilganligiga;

ilmiy-tadqiqot ishlari, erishilgan natijalarning talabgor tahsil olayotgan ta’lim yo‘nalishiga mosligiga ustuvorlik beriladi.

2. Agar talabgor muqaddam davlat stipendiyasi sovrindori bo‘lgan bo‘lsa, sovrindor bo‘lgan sanadan keyingi davrida erishgan natijalari va ilmiy-tadqiqot ishlari inobatga olinadi.